



**Xidirov Muhiddin  
Xursanovich,**

Termiz davlat universiteti  
O'zbekiston tarixi  
va manbashunoslik  
kafedrası o'qituvchisi

# TERMIZ-HIROT YO'NALISHI: **XIX ASR OXIRIDA IMPERIYALARARO STRATEGIK RAQOBAT MAYDONI**

## **Annotatsiya:**

*Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuz bergan geosiyosiy jarayonlar doirasida Termiz–Hirot yo'nalishining harbiy, iqtisodiy va strategik ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot “Katta o'yin” kontekstida Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasidagi raqobatni hududiy infratuzilma, transport yo'llari, savdo tizimi va harbiy joylashuvlar orqali yoritishga qaratilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, mazkur yo'nalish harbiy logistika, iqtisodiy kirib borish va siyosiy nazorat kesishgan murakkab strategik makon sifatida shakllangan.*

## **Kalit so'zlar:**

*Katta o'yin, Termiz, Hirot; Amudaryo, Rossiya imperiyasi, Buyuk Britaniya, temiryo'l geopolitikasi, chegara hududlari, harbiy logistika, Markaziy Osiyo.*

## ТЕРМЕЗ–ГЕРАТСКИЙ КОРИДОР: ЗОНА ИМПЕРСКОГО СТРАТЕГИЧЕСКОГО СОПЕРНИЧЕСТВА В КОНЦЕ XIX ВЕКА

### Аннотация:

*В данной статье анализируется военное, экономическое и стратегическое значение направления Термез–Герат в контексте геополитических процессов, происходивших в Центральной Азии в конце XIX – начале XX вв. Исследование направлено на раскрытие соперничества между Россией и Великобританией в рамках «Большой игры» через призму территориальной инфраструктуры, транспортных путей, торговой системы и военных размещений. Полученные результаты свидетельствуют о том, что данное направление сформировалось как сложное стратегическое пространство, в котором пересекаются военная логистика, экономическая экспансия и политический контроль.*

### Ключевые слова:

*Большая игра, Термез, Герат, Амударья, Российская империя, Великобритания, геополитика железных дорог, приграничные территории, военная логистика, Центральная Азия.*

## THE TERMEZ–HERAT CORRIDOR: A ZONE OF IMPERIAL STRATEGIC RIVALRY IN THE LATE NINETEENTH CENTURY

### Abstract:

*This article examines the military, economic, and strategic significance of the Termez–Herat corridor within the broader context of geopolitical processes that unfolded in Central Asia in the late nineteenth and early twentieth centuries. The study aims to analyze the rivalry between Russia and Great Britain within the framework of the “Great Game” by focusing on territorial infrastructure, transportation networks, trade systems, and patterns of military deployment. The findings suggest that this corridor evolved into a complex strategic space where military logistics, economic penetration, and political control intersected.*

### Key words:

*Great Game, Termez, Herat, Amu Darya, Russian Empire, Great Britain, railway geopolitics, border regions, military logistics, Central Asia.*

### Kirish.

Surxon zamini tarixan madaniyatlar, qadriyatlar, diniy eʼtiqodlar muloqot maydoni boʻlib kelgan. Bu zaminda saqlanib qolingan zardushtiylik va buddizm eʼtiqodiga mansub arxeologik yodgarliklar, milliy davlatchiligimizning tarixiy asosi boʻlgan manzilgohlar Surxondaryo hudud tarixda ham strategik nuqtalardan boʻlganligini koʻrsatadi. Shuningdek, islom dini va taʼlimotiga juda katta taʼsir koʻrsatgan allamolarni voyaga yetkazgan zamin sifatida ham yuksak maʼnaviyat salohiyatini namoyon qilgan. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududi Rossiya imperiyasi va Buyuk Britaniya oʻrtasidagi keskin geosiyosiy raqobat maydoniga aylandi. Ushbu jarayon tarixda “Katta oʻyin” nomi bilan mashhur boʻlib, unda ikki imperiya oʻz strategik manfaatlarini himoya qilish va kengaytirish uchun harbiy, iqtisodiy hamda diplomatik vositalardan foydalandi.

Mazkur raqobatning muhim yoʻnalishlaridan biri Termiz–Hirot yoʻnalishi boʻlib, u Rossiya Markaziy Osiyosi bilan Afgʻoniston orqali Hindistonga olib boruvchi strategik makonni tashkil etdi. Hirot Britaniya strategiyasida “Hindiston darvozasi”, Termiz esa Rossiya uchun ilgʻor harbiy tayanch punkt sifatida baholangan.

## Adabiyotlar tahlili:

Termiz–Hirot yoʻnalishi turli tabiiy geografik hududlarni oʻz ichiga oladi: daryo vodiylari, choʻl hududlari va sugʻoriladigan oazislar. Amudaryo tabiiy chegara va transport yoʻli sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. Rossiya harbiy-topografik tadqiqotlari “1878-yilda Gradekov Samarqanddan yoʻlga chiqib, Buxoro, Maymana, Hirot va Mashhad orqali Kaspiy dengiziga qadar sayohat qilgan (qarang: Petermanns Mitteilungen, 1879, 8-son, 230 va 307-betlar)” ushbu yoʻnalishning murakkab geografik sharoitlarini koʻrsatadi: botqoqliklar, qumli hududlar va sugʻoriladigan yerlar ketma-ket joylashgan.

“XIX asrning birinchi choragidayoq Markaziy Osiyoda imperiyalarning faolligi kuchaydi va ushbu hududlar “Katta oʻyin” makoniga kiritildi. Peterburg va Londonda Markaziy Osiyo davlatlari haqidagi bilimlar asosan savdogarlar bergan maʼlumotlar bilan cheklangan boʻlib, bu imperiyalarni “markaziy hududlar”ni chuqurroq oʻrganish va keyinchalik oʻzlashtirishga undadi. Ushbu jarayonda mahalliy aholi xayrixohligini qozonish hamda milliy elitalarning siyosiy yoʻnalishlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etdi”<sup>2</sup>.

XIX asr boshlarida Markaziy Osiyoning global geosiyosiy tizimga tobora faol integratsiyalasha boshlaganini koʻrsatadi. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi va Buyuk Britaniya oʻrtasidagi strategik raqobat — tarixshunoslikda “Katta oʻyin” nomi bilan mashhur jarayon — aynan shu davrda institutsional tus ola boshlagan.

Taʼkidlab oʻtilganidek, dastlabki bosqichda Peterburg va London markazlarida mavjud bilimlar bazasi yetarlicha tizimli va ishonchli emas edi. Savdogarlar, sayyohlar va norasmiy agentlar tomonidan taqdim etilgan maʼlumotlar fragmentar xarakterga ega boʻlib, ular koʻproq amaliy savdo manfaatlariga xizmat qilgan. Bu esa imperiyalarni yanada chuqurroq razvedka-topografik, etnografik va siyosiy tadqiqotlar olib borishga undagan.

Mazkur jarayonni ikki asosiy yoʻnalishda tahlil qilish mumkin:

Birinchiidan, bilim ishlab chiqarish (knowledge production) imperiyaviy ekspansiyaning ajralmas qismiga aylandi. Yaʼni, Markaziy Osiyo haqida tizimli maʼlumot toʻplash — xaritalash, aholi tarkibini oʻrganish, transport yoʻllarini aniqlash — keyingi harbiy va siyosiy qarorlar uchun zarur asos boʻlib xizmat qildi.

Ikkinchidan, mahalliy jamiyat bilan munosabatlar masalasi strategik ahamiyat kasb etdi. Imperiyalar nafaqat hududiy nazoratni oʻrnatishga, balki:

mahalliy elitalarni oʻz tomoniga ogʻdirish, siyosiy legitimlikni taʼminlash, ijtimoiy qarshilikni minimallashtirish kabi vazifalarni ham hal etishga intildi. Bu esa “yumshoq kuch” (soft power) elementlarining dastlabki koʻrinishlari sifatida baholanishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, matnda ifodalangan gʻoya Markaziy Osiyoda imperiyaviy strategiyaning uch asosiy komponentini ochib beradi:

Axborot va bilim ustidan nazorat

Harbiy-geosiyosiy tayyorgarlik

Mahalliy siyosiy-iqtisodiy tizimlarga integratsiya.

Ushbu manba Markaziy Osiyoda “Katta oʻyin”ning dastlabki bosqichlari faqat harbiy raqobat bilan emas, balki bilim ishlab chiqarish, razvedka faoliyati va mahalliy ijtimoiy-siyosiy muhitni oʻrganish orqali shakllanganini koʻrsatadi. Demak, imperiyalarning hududiy ekspansiyasi kompleks va koʻp qatlamli jarayon boʻlib, unda informatsion ustunlik hal qiluvchi omillardan biri boʻlgan.

XIX asrning birinchi choragidan boshlab Markaziy Osiyo hududi imperiyalararo geosiyosiy raqobat makoniga aylanib, keyinchalik tarixshunoslikda “Katta oʻyin” nomi bilan ifodalangan jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon boʻldi. Dastlabki bosqichda Peterburg va London siyosiy markazlarida mintaqa haqidagi bilimlar asosan savdogarlar, sayyohlar va norasmiy agentlar tomonidan taqdim etilgan parokanda maʼlumotlar bilan cheklangan edi. Mazkur epistemik cheklavlar Rossiya va Buyuk Britaniyani Markaziy Osiyoning “ichki hududlari”ni tizimli ravishda oʻrganishga undadi. Natijada harbiy-topografik tadqiqotlar, etnografik kuzatuvlar va siyosiy razvedka faoliyati imperiyaviy ekspansiyaning ajralmas komponentiga aylandi. Shu bilan birga, mahalliy aholi xayrixohligini taʼminlash hamda milliy elitalarning siyosiy yoʻnalishlarini aniqlash strategik ahamiyat kasb etdi. Bu holat imperiyaviy siyosatning faqat harbiy bosim bilan cheklanmaganligini, balki ijtimoiy-siyosiy integratsiya va taʼsir mexanizmlarini ham oʻz ichiga olganini koʻrsatadi. Demak, Markaziy Osiyoda imperiyalar taʼsirining kengayishi koʻp qatlamli jarayon boʻlib, unda bilim ishlab chiqarish, strategik rejalashtirish va mahalliy siyosiy muhit bilan oʻzaro aloqalar hal qiluvchi oʻrin tutgan.

“1860–1880-yillarda keng tarqalgan mazkur pozitsiyaning «qayta jonlanishi»ga sabab shundan iborat edi, aynan shu davrga kelib Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalari oʻrtasida Markaziy Osiyodagi manfaatlar toʻqnashuvi bilan bogʻliq muammolar nihoyat rasmiy jihatdan bartaraf etildi. Xususan, 1907 yilda ularning umumiy ittifoqchisi boʻlgan Fransiya vositachiligida Afgʻoniston,

1 DR A. PETERMANN'S MITTHEILUNGEN AUS X JUSTUS PERTHES' GEOGRAPHISCHER ANSTALT. HERAUSGEGEBEN VON DR E. BEHM. 26. BAND, 1880. GOTHA: JUSTUS PERTHES VILLE DE LYON. Bible du Palais des Arts. [https://www.google.co.uz/books/edition/Petermanns\\_Mitteilungen\\_Globus/QwT4x-qOc-4gC?hl=ru&gbpv=1&dq=Patta+Kissar&pg=PA155&printsec=frontcover](https://www.google.co.uz/books/edition/Petermanns_Mitteilungen_Globus/QwT4x-qOc-4gC?hl=ru&gbpv=1&dq=Patta+Kissar&pg=PA155&printsec=frontcover).

2 <https://cyberleninka.ru/article/n/regionalnoe-izmerenie-bolshoy-igray-stanovlenie-i-razvitiye-konets-XVIII-seredina-XIX-vv/viewer>

Eron (Fors) va Tibet masalalariga doir kelishuvlar paketi imzolandi. Odatda, ushbu kelishuvlar ko'p yillik «Katta o'yin»ning yakuniga yetganini anglatgan deb baholanadi hamda har ikki imperiya keng jamoatchilik doiralarida ma'lum muddat siyosiy e'yoriya holatini yuzaga keltirdi<sup>3</sup>.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyodagi imperiyalararo munosabatlar evolyutsiyasining muhim bosqichini aks ettiradi. Xususan, 1860–1880-yillarda shakllangan ekspansionistik yondashuvlarning XX asr boshida “qayta jonlanishi” tasodifiy emas, balki xalqaro siyosiy muhitdagi tub o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq edi. Bu jarayonda Rossiya imperiyasi va Buyuk Britaniya o'rtasidagi uzoq davom etgan geosiyosiy qarama-qarshilikning diplomatik yo'l bilan muvozanatlashtirilishi hal qiluvchi omil bo'ldi.

1907-yilgi kelishuvlar (Afg'oniston, Eron va Tibet bo'yicha) ikki imperiya o'rtasidagi raqobatni institutsional shaklda tartibga solgan muhim geosiyosiy hujjat sifatida baholanadi. Ushbu bitimlar nafaqat manfaatlar zonalarini aniqlashtirdi, balki Markaziy Osiyoni ochiq harbiy qarama-qarshilik maydonidan nisbatan barqaror diplomatik muvozanat hududiga aylantirdi. Shu ma'noda, “Katta o'yin”ning yakuniga yetgani haqidagi qarashlar tarixshunoslikda keng tarqalgan bo'lsa-da, uni mutlaq yakun sifatida emas, balki raqobatning shakl jihatdan transformatsiyasi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, “siyosiy e'yoriya” fenomeni ham alohida e'tiborga loyiq. Bu holat imperiyalar ichidagi jamoatchilik fikrining vaqtinchalik optimistik kayfiyatini aks ettirgan bo'lsa-da, amalda strategik raqobatning butunlay yo'qolganini anglatmagan. Aksincha, ochiq harbiy qarama-qarshilik o'rni iqtisodiy, diplomatik va infratuzilma- viy (xususan, temiryo'l qurilishi, savdo yo'llari nazorati) vositalar orqali olib borilgan raqobat egallay boshladi.

“Chor Rossiyasi Afg'oniston va Hindistonga ularning ichki, o'ziga xos qadriyatlarini nuqtayi nazaridan emas, balki faqat inglizlarni qo'rqitish nuqtayi nazaridan qaragan. Bunday yondashuv vaqti-vaqti bilan O'rta Osiyo masalasini xalqaro inqirozlarga aralashtirib yubordi, ammo umuman olganda, unga faqat ma'lum bir dushmanga qarshi va o'ziga xos vaziyatlarda qo'llaniladigan maxsus qurolning kamtarona o'rni ajratdi. Ehtiyoj yo'qoldi va chor diplomatiyasi uni darhol qurol-yarog omboriga topshirdi, Rossiya Afg'oniston chegaralarida o'z geografik mavqegini saqlab qolishda davom etdi”<sup>4</sup>.

“Markaziy Osiyoning eng qadimgi shaharlaridan biri bo'lgan Termiz Hindistonga boradigan asosiy yo'lda joylashgan bo'lib, o'z tarixining ilk bosqichlaridanoq Amudaryo ustidagi qulay kechuvni qo'riqlash vazifasini bajar- gan. Vaqt o'tishi bilan Termizning Amudaryodan o'tish joyidagi muhim nuqta sifatidagi ahamiyati ortib bordi va

bu omil uning tarixida hal qiluvchi rol o'ynadi. Termiz o'zining harbiy ahamiyatini yaqin tarixda ham saqlab qoldi. Aynan Termiz XIX asr oxirida, harbiylar uni Afg'oniston orqali Hindistonga yurishlar uchun markaz sifatida tanlaganlarida, Rossiya davlatining tayanch nuqtasiga aylandi. Bunga qadar Rossiya qo'shinlarining Hindiston tomon harakatlanishining turli rejalar ishlab chiqilgan”<sup>5</sup>.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot tarixiy-geosiyosiy yondashuv asosida olib borilib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuz bergan imperiyalararo raqobat jarayonlarini kompleks tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, tizimlilik va qiyosiy tahlil tamoyillari tashkil etadi.

Birinchidan, tarixiy-tahliliy metod asosida Rossiya imperiyasi va Buyuk Britaniya o'rtasidagi geosiyosiy raqobatning evolyutsiyasi o'rganildi. Bu jarayonda arxiv hujjatlari, harbiy-topografik tavsiflar, sayohatchilar va harbiy mutaxassislar tomonidan yozilgan manbalar (jumladan, rus harbiy kartografik materiallari va Yevropa geograflarining ishlari) tahlil qilindi.

Ikkinchidan, geosiyosiy yondashuv orqali Termiz–Hirot yo'nalishining strategik o'rni aniqlanib, uning imperiyalar manfaatlarini tizimidagi funksiyasi baholandi. Ushbu yondashuv hududning geografik joylashuvi, transport-kommunikatsiya imkoniyatlari (Amudaryo, karvon yo'llari, temiryo'l loyihalari) hamda harbiy infratuzilmaning shakllanishi bilan bog'liq omillarni kompleks ko'rib chiqishga imkon berdi.

Uchinchidan, qiyosiy-tarixiy metod asosida Rossiya va Buyuk Britaniyaning mintaqadagi strategik siyosati o'zaro solishtirildi. Xususan, harbiy-logistik yondashuvlar, iqtisodiy kirib borish mexanizmlari hamda diplomatik strategiyalar tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda interdisiplinar yondashuv qo'llanilib, tarix, siyosatshunoslik va iqtisodiy geografiya elementlari integratsiya qilindi. Bu esa Termiz–Hirot yo'nalishini nafaqat tarixiy hudud, balki murakkab geosiyosiy tizim sifatida talqin qilish imkonini berdi.

## Tahlil va natijalar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Termiz–Hirot yo'nalishi Markaziy Osiyoda imperiyalararo strategik raqobatning eng muhim hududlaridan biriga aylangan. Ushbu yo'nalishning ahamiyati bir necha o'zaro bog'liq omillar orqali namoyon bo'ladi.

Birinchidan, harbiy-logistik omil hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Termiz Rossiya imperiyasi uchun Amu-

3 Почекаев Роман Юлианович. АНТРОПОЛОГИЯ ВЛАСТНОЙ КОММУНИКАЦИИ В РОССИЙСКОЙ ПОЛИТИКЕ ФРОНТИРНОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ КАЗАХСКОЙ СТЕПИ И ХАНСТВ СРЕДНЕЙ АЗИИ В XVIII – НАЧАЛЕ XX В. Диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. Оренбург 2020. ст 335-336.

4 ЦЕНТРАЛЬНЫЙ АРХИВ Р.С.Ф.С.Р исторический журнал КРАСНИЙ АРХИВ ПОД РЕДАКЦИЕЙ В. В. Адоратского, В. В. Максакова, М. Н. Покровского, В. П. Полонского, В. М. Фричею. Том третий (десятый). ГОСУДАРСТВЕННОЕ ИЗДАТЕЛЬСТВО МОСКВА 1925 ЛЕНИНГРАД. Ст.52.

5 Дж.З.Мирзаев <https://www.academia.edu/3624240/>

daryo bo'yida joylashgan ilg'or tayanch nuqta sifatida xizmat qilgan bo'lsa, Hirot Buyuk Britaniya strategiyasida Hindiston xavfsizligini ta'minlovchi asosiy "darvoza" sifatida baholangan. Natijada mazkur yo'nalish harbiy harakatlar uchun potentsial yo'lak sifatida shakllangan.

Ikkinchidan, transport va infratuzilma omili muhim rol o'ynagan. Amudaryo nafaqat tabiiy chegara, balki muhim transport arteriyasi sifatida xizmat qilgan. Shu bilan birga, temiryo'l qurilishi loyihalari va harbiy yo'llar tarmog'ining rivojlanishi hududni strategik jihatdan yanada muhimlashtirgan. Ayniqsa, temiryo'l geopolitikasi imperiyalar raqobatining yangi bosqichini boshlab bergan.

Uchinchidan, iqtisodiy omil mazkur hududning strategik ahamiyatini kuchaytirgan. Termiz–Hirot yo'nalishi orqali savdo oqimlarini nazorat qilish imkoniyati Rossiya uchun Afg'oniston va undan janubdagi hududlarga iqtisodiy ta'sir o'tkazish vositasiga aylangan. Bojxona tizimi, tranzit savdo va resurslar ustidan nazorat bu jarayonning muhim komponentlari bo'lgan.

To'rtinchidan, siyosiy va diplomatik omil ham muhim ahamiyat kasb etgan. Mahalliy elitalar bilan aloqalar o'rnatish, ularning siyosiy yo'nalishini shakllantirish hamda hududiy nazoratni legitimlashtirish imperiyalar strategiyasining ajralmas qismi bo'lgan. Bu esa raqobatning faqat harbiy emas, balki ko'p qatlamli xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, Termiz–Hirot yo'nalishi oddiy geografik yo'lak emas, balki:

harbiy-logistik tizim,

iqtisodiy ta'sir zonasi,

siyosiy nazorat mexanizmi

kesishgan murakkab geosiyosiy makon sifatida shakllangan. Shu bois, uni "Katta o'yin" doirasida strategik tugun (strategic node) sifatida talqin qilish mumkin.

## Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqot natijalari XIX asr oxiri XX asr boshlarida Termiz–Hirot yo'nalishi Markaziy Osiyoda muhim geosiyosiy makon sifatida shakllanganini ko'rsatadi. "Katta o'yin" doirasida ushbu hudud nafaqat harbiy-logistik yo'lak, balki harbiy rejalashtirish, iqtisodiy kirib borish va siyosiy ta'sir mexanizmlari o'zaro kesishgan murakkab strategik hudud sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur yo'nalishning strategik ahamiyati uning o'ziga xos geografik joylashuvi bilan belgilanadi. Xususan, Amudaryoning tabiiy chegara va transport arteriyasi sifatidagi roli, shuningdek, Afg'oniston orqali Hindistonga chiqish imkoniyati ushbu hududni imperiyalararo raqobatning muhim komponentiga aylantirgan. Termizning ilg'or harbiy tayanch nuqta, Hirotning esa strategik "darvoza" sifatidagi o'rni bu makonning geosiyosiy ahamiyatini yanada kuchaytirgan.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatadiki, imperi-

yalararo raqobat faqat ochiq harbiy qarama-qarshilik bilan cheklanmagan, balki bilim ishlab chiqarish, razvedka faoliyati, infratuzilmaviy rivojlanish hamda mahalliy siyosiy elitalar bilan o'zaro aloqalar orqali amalga oshirilgan ko'p qatlamli jarayon sifatida kechgan. Shu jihatdan, Termiz–Hirot yo'nalishini nafaqat geografik, balki strategik-intellektual makon sifatida ham talqin qilish mumkin.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, XX asr boshlarida tuzilgan kelishuvlar "Katta o'yin"ning to'liq yakunlanganini anglatmaydi, balki uning yangi shakllarga-diplomatik, iqtisodiy va infratuzilmaviy raqobatga transformatsiyalashganini bildiradi. Bu esa mazkur hududning geosiyosiy ahamiyati tarixiy davomiylik kasb etganini va uning ahamiyati keyingi davrlarda ham saqlanib qolganini tasdiqlaydi.